

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 117 (1716), 2026-yil 11-iyun, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



SAMARQAND VILOYATI TUMANLARINI ALOHIDA IXTISOSLASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH VAZIFALARI BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 10-iyun kuni Samarqand viloyati hududlarini kompleks rivojlantirish, olis va chekka tumanlarda aholi turmush darajasini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Davlatimiz rahbarining o‘tgan yil dekabr oyidagi Samarqand viloyatiga tashrifidan so‘ng hududni 2026-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar belgilanib, bunga qo‘shimcha 100 million dollar mablag‘ ajratilgan edi. Shu yil mart oyida Narpay tumaniga tashrif davomida esa viloyatning olis va chekka hududlarini alohida yondashuv asosida rivojlantirish bo‘yicha topshiriq berilgan.

Yig‘ilishda ushbu topshiriqlar ijrosi Bulung‘ur, Narpay, Oqdaryo, Paxtachi, Qo‘shrabot, Kattaqo‘rg‘on tumanlari va Kattaqo‘rg‘on shahri misolida ko‘rib chiqildi.

Qayd etilganidek, chekka hududlarda aholi ko‘p bo‘lsa-da, yuqori daromadli ish o‘rinlari yetarli emas. Narpay, Qo‘shrabot, Paxtachi, Kattaqo‘rg‘on tumanlari va Kattaqo‘rg‘on shahrining viloyat sanoatidagi umumiy ulushi atigi 10 foizni tashkil qiladi. Narpay, Paxtachi, Pastdarg‘om tumanlari hamda Kattaqo‘rg‘on shahrida ishsizlik va kambag‘allik darajasi boshqa hududlarga nisbatan yuqori.

Shu bois, mazkur hududlarning salohiyatidan kelib chiqib, ularni aniq ixtisoslashuv asosida rivojlantirish taklif etildi. Xususan, Bulung‘ur, Qo‘shrabot, Paxtachi va Kattaqo‘rg‘on tumanlari qishloq xo‘jaligi, chorvachilik va bog‘dorchilik markazi sifatida rivojlantiriladi. Bulung‘urda yillik quvvati 100 ming bosh bo‘lgan 50 million dollarlik naslchilik korxonasi, Qo‘shrabot va Oqdaryoda yillik quvvati 800 ming dona bo‘lgan 20 million dollarlik nasli jo‘ja korxonalarini ishga tushirish rejalashtirilgan.

Narpay tumani va Kattaqo‘rg‘on shahri sanoat va xizmat ko‘rsatish sohasining o‘ziga xos nuqtasiga aylantiriladi. Jumladan, Narpayda 100 gektar maydonda sanoat zonasi tashkil etilib, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha 500 million dollarlik loyihalar

joylashtiriladi. Bu jarayonga Yaponiyaning 10 ta yirik kompaniyasini jalb etish ko‘zda tutilgan. Oqdaryo tumani parrandachilik, to‘qimachilik va qayta ishlash sanoatiga ixtisoslashgan hudud sifatida rivojlantiriladi.

Yig‘ilishda Narpay, Paxtachi, Pastdarg‘om tumanlari va Kattaqo‘rg‘on shahrida ishsizlik darajasini 3 foizgacha, kambag‘allikni 2 foizgacha tushirish, Ishitxon, Narpay, Nurobod, Paxtachi, Qo‘shrabot va Kattaqo‘rg‘on tumanlarida eksportni 20 foizga oshirish, shuningdek, Bulung‘ur, Narpay, Nurobod, Payariq, Paxtachi, Qo‘shrabot, Kattaqo‘rg‘on tumanlari va Kattaqo‘rg‘on shahrida xizmatlar hamda sanoat hajmini 2 karra ko‘paytirish bo‘yicha loyihalar taqdimot qilindi.

Samarqand viloyatining turizm salohiyatini yanada kengaytirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Joriy yil boshidan mamlakatimizga kelgan xorijiy turistlar soni 27,3 foizga oshib, 5,4 million nafarga yetdi. O‘zbekiston xorijiy turistlar sonini 20 million nafarga, turizm eksportini 10 milliard dollarga yetkazish bo‘yicha katta marra olgan. Buning uchun hududlarda turistlarni uzoqroq ushlab qoladigan yangi yo‘nalishlar va servis obyektlarini ko‘paytirish zarurligi ta‘kidlandi.

Shu maqsadda Samarqandning tarixiy markazidagi 13 ta ko‘chani piyodalar hududiga aylantirish, yangi turizm va servis obyektlarini barpo etish tashabbusi qo‘llab-quvvatlandi. Shuningdek, “Ohalik — Oqbo‘yro — Mironqul” turistik-rekreatsiya zonasi hududini kengaytirish taklif qilindi. Imom Moturidiy yodgorlik majmuasi qarshisidan oqib o‘tuvchi “Shaar” kollektori atrofida obodonlashtirish masalasi ham ko‘rib chiqildi.

Mazkur choralar natijasida Samarqand shahri, Nurobod va Samarqand tumanlarida

mehmonxonalar sonini 850 taga, nomer fondini 20 ming o‘ringa, turizm xizmatlari hajmini 750 million dollarga yetkazish vazifasi qo‘yildi.

Yig‘ilishda aholi yashashi uchun qulay infratuzilma yaratish eng asosiy vazifa ekanini ta‘kidlandi. Buning uchun ijtimoiy obyektlar qurish, yo‘l, ichimlik suvi va kanalizatsiya tarmoqlari, elektr ta‘minotini yaxshilash, servis va renovatsiya loyihalarini amalga oshirish, sanoat loyihalarini infratuzilma bilan ta‘minlash maqsadida 1,2 trilyon so‘m ajratish taklifi bildirildi.

Samarqand shahrida renovatsiya dasturi asosida “Kimyogarlar” qo‘rg‘onini aholi uchun qulay qiyofaga keltirish bo‘yicha master-rejani bir oy muddatda tasdiqlash, Bulung‘ur tumanida qurilayotgan “Yangi O‘zbekiston” massivi hududini kengaytirish, yil yakuniga qadar Samarqand shahrining “Temir yo‘l orti” hududidagi bo‘sh turgan yer va binolar o‘rnida sport, madaniyat, musiqa va san‘at maskanlarini tashkil etish vazifasi qo‘yildi.

Shuningdek, viloyat hokimligi huzurida ijtimoiy soha obyektlarini qurish va ta‘mirlash jamg‘armasini tashkil etish ma‘qullandi. Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar bo‘yicha iqtisod qilingan mablag‘lar ushbu jamg‘armaga yo‘naltirilishi belgilandi.

Yig‘ilishda mutasaddilarning axboroti tinglandi. Davlatimiz rahbari Samarqand viloyatining har bir tumanida mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi daromadini oshirish va hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutni qisqartirish bo‘yicha aniq topshiriqlar berdi.

O‘ZA

SHAHARSOZLIK VA UY-JOY QURILISHI SOHASIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev urbanizatsiya va shaharsozlik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda shahar aholisi ulushi 50 foizdan oshdi va kelgusi yillarda mazkur ko‘rsatkich yana o‘shishi kutilmoqda. Aholi soni va qurilish sur‘atlari ortib borayotgani shaharsozlik rejalari zamonaviy talablar asosida ishlab chiqish, yashil hududlarni saqlash, tarixiy-madaniy merosni muhofaza qilish, muhandislik va transport infratuzilmasini uyg‘un rivojlantirishni tobora dolzarb qilib qo‘ymoqda.

Bugungi kunda respublikadagi 8 ming 604 ta aholi punktidan 2 ming 506 tasi yoki 29 foizi bosh rejalalar bilan qamrab olingan. 2026-yilda yana 154 ta, 2027-yilda esa 144 ta aholi punkti uchun bosh rejalalar ishlab chiqilishi rejalashtirilgan. Mavjud bosh rejalarning 1 ming 44 tasi elektron shaklga o‘tkazilgan.

Shu bilan birga, alohida hududlarni rivojlantirish bo‘yicha 2024-2025-yillarda 275 ta master-reja ishlab chiqilgan bo‘lsa-

da, ularning yagona hisobi yuritilmagan, bosh rejalalar bilan o‘zaro bog‘lanmagan. Bu esa hududlarni kompleks rivojlantirish, infratuzilma, transport, muhandislik tarmoqlari va ijtimoiy obyektlarni uyg‘un rejalashtirishda qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Davomi 2-beta

ISLOM SIVILIZATSIYASI MARKAZI FAOLIYATI YANADA TAKOMILLASHTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining faoliyati natijalari va uni yanada rivojlantirish rejalari yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda milliy o‘zlikni anglash, boy tarixiy-ma‘naviy merosimizni chuqur o‘rganish, ulug‘ allomalarimiz ilmiy merosini xalqaro miqyosda keng targ‘ib etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi esa ayni shu yo‘nalishda milliy va xalqaro ahamiyatga ega zamonaviy madaniy-ma‘rifiy platforma sifatida shakllanmoqda.

Taqdimotda o‘tgan davrda markaz tomonidan amalga oshirilgan ishlar haqida axborot berildi.

Markaz joriy yilning 17-mart kuni muhtasham binoda rasman ish boshladi.

1-iyun holatiga ko‘ra, markazga yarim million nafar mahalliy va xorijiy tashrif

buyuruvchilar kelgan. Kunlik tashriflar soni o‘rtacha 6 ming nafarni tashkil etmoqda. Shu davrda muassasaga 150 dan ortiq xorijiy delegatsiya va 2 ming nafardan ziyod xorijiy mehmonlar tashrif buyurgan.

Majmua tarkibida Bolalar muzeyi tashkil etildi, Imom Buxoriy innovatsion muzeyining faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Binoda Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi joylashtirildi. Gid-ekskursovodlar va nazoratchilar xizmati tashkil qilindi.

Ilmiy va innovatsion yo‘nalishda 810 ta loyiha amalga oshirildi. Bu ishlar 2 mingga yaqin mahalliy va xorijiy olimlar ishtirok etdi.

Markazda konferensiyalar, seminarlar, davra subhatlari, mahorat darslari va kitob taqdimotlari tashkil etib kelinmoqda. Ushbu tadbirlarga bugunga qadar 5 mingdan ziyod ishtirokchi jalb etildi.

Madaniy merosni qaytarish va fondlarni boyitish yo‘nalishida ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jami 1 mingdan ziyod artefakt O‘zbekistonga qaytarildi. Markaz kutubxona fondi ham boyitilmoqda. Hozirgi kunda fond tarkibida 3 mingdan ortiq nodir nashr mavjud bo‘lib, 762 tasi imkoniyati cheklangan shaxslar uchun mo‘ljallangan. Fond raqamlashtirilmoqda, elektron chiqlar o‘rnatilmoqda.

Davomi 2-beta

Yangi loyiha

YANGI O‘ZBEKISTON: SHIDDATLI EVRILISH VA REAL NATIJALAR MANZILI

Kutib oling, “Yangi O‘zbekiston” gazetasida yangi loyiha — “Yangi O‘zbekiston: Shiddatli evrilish va real natijalar manzili” boshlandi.

Mamlakatimiz yetakchisining siyosiy irodasi sabab qisqa vaqtda katta tarix yaratildi. Natijada inson qadriini ulug‘lashga qaratilgan islohotlar nafasi olis qishloq va ovullarga ham kirib bordi. Yurtodoshlarimiz real vaqt rejimidagi o‘zgarishlarni o‘z hayoti misolida ko‘rib, quvonib, bir butun mamlakat, yagona xalq bo‘lib birlashdi.

Yana bir hayotiy haqiqat bor. O‘shish va o‘zgarish sur‘ati qanchalik shiddatli bo‘lsa, kechagi kundagi masalalar, bosib o‘tilgan tarix shuncha tez unut bo‘lib boradi. Hayotning bu achchiq haqiqati ziyolilar, ayniqsa, jurnalist, yozuvchilar oldiga kecha va bugunni qiyos etib, tarixni yozib borishdek juda muhim vazifa qo‘yadi. Zero, kechagi kuni eslab, uni tahlil etish ko‘zlangan maqsad sari og‘ishmay borishda muhim yo‘lko‘rsatkichdir.

Mazkur loyihani bugungi natijalar tahlili orqali qisqa vaqtda qanchalik katta tarix yaratilganini ochib berish maqsadida boshladik. Unga ko‘ra, “Yangi O‘zbekiston” gazetasining ijodiy jamoasi mamlakatimiz bo‘ylab olis qishloq va ovullardagi o‘zgarishlar, shaharlarning yangilangan qiyofasi bilan yaqindan tanishadi. Ziyolilar, yoshlar, faollar va oddiy insonlar bilan subhatlash, ularning dil so‘zlariga quloq tutadi. Shu asosda real hayotiy hikoyalardan iborat islohotlar ko‘lamini ochib berishga harakat qiladi.

Loyihani Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi o‘zgarishlar misolida boshlashni niyat qildik. “Yangi O‘zbekiston” gazetasining bugungi sonini to‘liq ushbu hududning o‘n yillik taraqqiyot yo‘liga bag‘ishladik. Qoraqalpog‘istondagi yangilanishlar bilan tanishar ekanimiz, gazetani bitta sohadagi natijalarga bag‘ishlasak ham uni bor bo‘y-basti bilan ochib berish imkonisiz ekanini oydinlashadi. Shu bois, loyihadagi imkon qadar ko‘proq yo‘nalish, sohani qamrab olishga, ulardagi eng muhim jihatlarni ochib berishga urindik.

Umid qilamizki, Orolbo‘yi hayotiga bag‘ishlangan bugungi tahliliy maqolalar orqali ushbu zamindagi asl evrilishlar ko‘lamini his etasiz.

Tahririyat

Mamlakatimiz yetakchisi Shavkat Mirziyoyev Prezidentlik vazifasiga kirishgach, ilk tashrifi Qoraqalpog‘istonga bo‘lgan edi. O‘sha tarixiy tashrif O‘zbekistondagi yangilanishlar davrining debochasi bo‘ldi. Islohotlarga nafaqat davlat rahbari, balki shu elning asl fidoyi farzandi sifatida qo‘l urilganini o‘shanda ko‘pchilik anglab ulurmaganidir. Tan olaylik, yangi davr islohotlariga bir oz shubha bilan qaraganlar topilardi o‘sha paytlarda. Niyat qancha xolis, samimiy bo‘lsa, natija shunchalik yuksak bo‘lishiga o‘tgan qisqa davrda guvoh bo‘lib kelyapmiz.

QORAQALPOG‘ISTON:

ULKAN MAQSADLAR, YORQIN NATIJALAR



Taraqqiyot odimlari

Prezidentimiz, **“Ko‘rib turibsizlar, qoraqalpog‘ zaminida yashab, ishlayotgan odamlarning ertasi bugunidan yaxshi bo‘lishi uchun katta marralarni olganmiz”**, degan edi. Bugun ana shu baland olingan marralar birma-bir zabt etilmoqda. Shu bois, hech o‘ylanmay aytamizki, yangi O‘zbekistondagi o‘zgarishlarni bor bo‘y-basti bilan his etish uchun Qoraqalpog‘istonga safar qiling! Nukuzdan toki Orolning qurigan tubigacha bo‘lgan bepoyon kenglikni kezib, insonlar bilan subhatlashib, ertangi kun rejalari bilan tanishing!

Maqola avvalidanoq bunday deyishimizning asoslari bor, albatta. Odatda tahlilchilar ayni kundagi islohotlarga vaqt o‘tib haqiqiy bahoni berish mumkin deydi. Bu to‘g‘ri fikr, ammo har qanday haqiqatda ham nisbiylik bor. Demochimizki, hozirgi yangilanishlar shiddatini ayni darning o‘zida his etish, shunga qarab samaradorligini taxmin qilsa bo‘ladi. Buning yagona yo‘li insonlar qalbiga quloq tutishdir. Zero, insonlarning kelajak rejasiga qarab, bugungi kun uchun haqiqiy baho berish mumkin. Ushbu fikrni Orolbo‘yi aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti misolida tahlil etishga urinib ko‘rsak.

O‘zgarishlar davri

O‘n yil avval Nukusga borgan kishi talabga javob beradigan mehmonxonaga topishga ham qiynalardi. Xizmatlar, sharoitdan unchalik ham ko‘ngil to‘lmasdi. Negaki, bunga ehtiyoj yo‘q edi. Orolbo‘yiga mehmonga borish tugul, tub aholi, ayniqsa, yoshlar yanada qulay va ekologik inqirozdan uzoqroq shaharlarga ko‘chib ketish xayolida yashardi. Ana shunday bir fursatda inson qadriini ulug‘lashga qaratilgan yangilanishlar nafasi kirib keldi.

Qaraqog‘ yerga suv kelishini hech kuzatganmisiz? Bunday vaqtda suvning tezligi, hajmidan qat‘i nazar, yerdan o‘ziga xos ovoz chiqadi. Go‘yo yer tahsin aytib, chapak chalayotgandek bo‘ladi. Dastlab, suvning katta qismi yerga singadi. O‘sha joy to‘yinmaguncha, keyingi manzillarga yetarlicha obihayot bormaydi. Xuddi shuningdek, yillar davomida yig‘ilib qolgan masalalarni hal etish, qariyb 40 million nufusga ega xalqni rozi qilib, bir maqsad atrofida birlashtirish esa aytishgagina oson!

Davomi 3-beta

Ekspert hajmining 32,1 million dollardan 435 million dollargacha o'sishi esa hududning tashqi iqtisodiy aloqalari kengayib, uning global bozorlardagi ishtiroki faollashayotganini ko'rsatadi.

YANGI O'ZBEKISTON

yuz.uz_news

yuz.uz_news

Tahlil

OROLBO'YI YIRIK BIZNES

VA TADBIRKORLIK XABIGA AYLANMOQDA

Iqtisodiyot bugun oddiy hisob-kitoblari yoki ishlab chiqarish hajmi bilan o'chanmaydi. U, avvalo, insonning ertangi kunga ishonchi, tadbirkor tashabbusi, investorning qaror qabul qilishi va davlat siyosati samarasida ko'rinadi. Qaysi joyda ishonch muhiti shakllansa, o'sha yerda harakat paydo bo'ladi. Harakat bor joyda esa taraqqiyot tezlashadi.



Umar USMONOV,
Savdo-sanoat palatasining
Qoraqalpog'iston Respublikasi
hududiy boshqarmasi boshlig'i

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Qoraqalpog'istonda keyingi yillarda kechayotgan o'zgarishlar oddiy iqtisodiy o'sishdan ancha keng ma'noga ega. Bu jarayonlarni faqat yangi korxonalar, investitsiyalar yoki o'sib borayotgan ko'rsatkichlar bilan izohlab bo'lmaydi. Gap, eng avvalo, odamlarning iqtisodiy fikrlashi o'zgarayotgani, tashabbus va mas'uliyat kuchayayotgani, jamiyatda yangi imkoniyatlarga ishonch qaror topayotganidir. Bu o'zgarishlarning muhim asoslaridan biri davlatimiz rahbarining Qoraqalpog'iston taraqqiyotiga qaratayotgan alohida e'tiborida namoyon bo'lmoqda. Xususan, 2024-yil 19-avgust kuni Qoraqalpog'istoni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda hududni yirik biznes va tadbirkorlik xabiga aylantirish

vazifasi belgilab berildi. Ana shu maqsadda "Qoraqalpog'istonda biznes qiling" dasturini ishlab chiqish tashabbusi ilgari surilgandi. Bu bo'yicha ayni paytda tizimli ishlanmoqda. Bugun Qoraqalpog'iston misolida bir haqiqat yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda: ishlohtlarning haqiqiy samarasi faqat hisobotlarda emas, insonlar kayfiyatida, mehnatga munosabatida va kelajakka bo'lgan qarashlarida ham aks etmoqda. Shu ma'noda, hududda kechayotgan jarayonlarni yangi iqtisodiy tafakkur, yangi imkoniyatlar muhiti va yangi taraqqiyot bosqichining shakllanishi sifatida baholash o'rindir.

Qoraqalpog'istonda 2017-yilda yalpi hududiy mahsulot 13,5 trillion so'm atrofida bo'lgan, joriy yil boshida esa 54 trillion so'mdan oshgani iqtisodiy tizimning mazmunan yangi bosqichga ko'tarilganini ko'rsatadi. E'tiborli jihati, o'sish ekstensiv kengayish hisobiga bo'lmay, boshqaruv tizimining yangilanishi, investitsiya muhiti yaxshilanishi va iqtisodiy munosabatlar zamonaviylashuvi orqali ta'minlanmoqda.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi hududiy mahsulotning 7,5 million so'mdan 26,5 million so'mgacha oshishi esa bu o'sishning real ijtimoiy ta'siriga ega ekaniga dalildir. Chunki bu raqamlar ortida har bir oilaning daromad manbalari kengayishi,



Qoraqalpog'istonda 2017-yilda yalpi hududiy mahsulot 13,5 trillion so'm atrofida bo'lgan, joriy yil boshida esa 54 trillion so'mdan oshgani iqtisodiy tizimning mazmunan yangi bosqichga ko'tarilganini ko'rsatadi.

iste'mol imkoniyatlari oshishi mujassam. Iqtisodiy nazariya nuqtayi nazaridan, bu holat inklyuziv o'sish modelining amaldagi ifodasi hisoblanadi, ya'ni rivojlanish natijalari jamiyatning keng qatlamlariga kengroq tarqala boshlaydi.

Insonlar iqtisodiy jarayonlarning faol

ishtirokchisiga aylanishi, tadbirkorlik tashabbuslari ortishi va mehnatga munosabat yangilanishi iqtisodiy o'sishning chuqurlashganini anglatadi. Demak, Qoraqalpog'istonda kuzatilayotgan rivojlanishni faqat raqamlar dinamikasi emas, iqtisodiy tizim va jamiyat o'rtasidagi yangi sifatlari muvozanatining shakllanishi deb tushunish maqsadga muvofiqdir.

So'nggi yillarda Qoraqalpog'istonda tadbirkorlik muhiti tubdan o'zgarib, ko'lami va mazmuni yangi bosqichga chiqdi. Korxonalar sonining 11,1 mingdan 26 mingtagacha oshishi jamiyatda tashabbuskorlik madaniyati shakllanayotganini aniq belgisi. Zero, tadbirkorlik faqat iqtisodiy faollikni anglatmaydi, u insonning fikrlash tarzi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati bilan chambarchas bog'liq. Har bir yangi korxonada ortida yangi g'oya, yangi ish o'rni va yangi iqtisodiy munosabatlar tizimi shakllanadi. Bu esa jamiyatning ichki energiyasi uyg'onayotganidan dalolat beradi.

Sanoat mahsulotlari hajmining 7 trillion so'mdan 29 trillion so'mgacha oshishi Qoraqalpog'iston iqtisodiyotida sanoatlash jarayoni izchil va barqaror tus olayotganini ko'rsatadi. Bu o'sish zamirida ishlab chiqarish quvvatlari kengayishi bilan birga texnologiyalarni joriy etish, mehnat

“

So'nggi yillarda Qoraqalpog'istonda tadbirkorlik muhiti tubdan o'zgarib, ko'lami va mazmuni yangi bosqichga chiqdi. Korxonalar sonining 11,1 mingdan 26 mingtagacha oshishi jamiyatda tashabbuskorlik madaniyati shakllanayotganini aniq belgisi. Zero, tadbirkorlik faqat iqtisodiy faollikni anglatmaydi, u insonning fikrlash tarzi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati bilan chambarchas bog'liq.

Bunyodkorlik

Gohida xizmatchilik, gohida sayohat bilan yaqin-olis mamlakatlarning katta-kichik shaharlarida bo'laman. Ko'p-ko'p manzillarni ko'raman-u, o'z-o'zidan taqqoslay boshlayman. Har kim o'z bilganicha palapartish qurib tashlangan imoratlar, yo'llarning abgor ahvoli, loy va chiqindiga to'la ko'chalar odamning dilini xira qiladi.



“Yangi O'zbekiston” massivi:

TO'KIS YASHASH BAXTI

Aksincha, bataritib, yaxlit me'moriy yechim va uyg'unlikda bunyod etilgan, ko'rinishi va arxitekturasini jihatidan biri ikkinchisini takrorlamaydigan bino va inshootlar, anvoiy gullar bilan to'la ko'chalardan o'tar ekansiz, beixiyor qalbingiz zavqu shavqqa to'ladi. Demochimanki, atrof-muhit, fayzli go'shalar inson kayfiyatiga ijobiy ta'sir qiladi.

Keling, mavzuni O'zbekistonning olis sarhadi — Orolbo'yi hududi misolida davom ettiraylik. Bundan o'n yillar oldin bu hudud haqida gap ketse, odam yursa oyog'i, qush uchsa qanoti kuyadigan hadsiz-hududsiz cho'lu biyobon xayolimizda gavalanardi. Bu gaplar bugungi avlod vakillari uchun ishonish qiyin achchiq haqiqat edi. Tarix oldida o'ta qisqa davr — o'n yil davomida bu dogmatik qarashlar chilparchin bo'ldi.

Bugun Orolbo'yi shahar va ovullarida hayot qaynadi. Har ko'chada, har manzilda ulkan bunyodkorliklar. Odamlarida bir paytdardagi tushkun kayfiyat o'rini quvonch, ertangi kunga kuchli ishonch va xotirjamlik egallagan.

Yo'ldoshevar oilasi uchun 2026-yil unutilmas quvonchlar bilan boshlandi. Yosh oila Prezidentimiz tomonidan aholini uy-

joy bilan ta'minlash ko'lamin kengaytirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish hamda yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida joriy etilgan subsidiyalarni ajratish tizimi orqali Amudaryo tumani Do'stlik mahallasidagi “Yangi O'zbekiston” massividan 3 xonali zamonaviy turar joy egasiga aylandi. Bu esa davlat siyosatining inson manfaatlariga qaratilganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Qisqa muddat ichida qad rostlagan ushbu ko'p qavatli turar joy binolari aholining kundalik ehtiyojlarini to'liq qondirishga mo'ljallangan. Uylar zamonaviy arxitektura loyihalari asosida qurilgan bo'lib, tabiiy gaz, elektr energiyasi, ichimlik suv, kanalizatsiya tarmoqlari, xullas, zarur infratuzilma mavjud. Atrof-muhit obodonchiligi, bolalar maydonchalari va yashil hududlar ham aholi uchun qulay yashash muhiti yaratmoqda.

Amudaryo tumani Do'stlik mahallasining “Yangi O'zbekiston” massivida 2024-yilda 18,5 gektar maydonda jami 13 ta ko'p qavatli turar joy qurilishi boshlangan edi. Qisqa vaqt ichida jadallik bilan bajarilgan qurilish ishlari natijasida 2025-yilga kelib ushbu uylarning 7 tasi to'liq

bitkazilib, foydalanishga topshirildi. Ayni paytda qolgan 6 ta ko'p qavatli turar joyda qurilish izchil davom etmoqda.

Bugun ushbu massivda yuzlab oilalar zamonaviy, qulay va xavfsiz sharoitga ega xonadonlarda osoniyatda hayot kechirmoqda. Yangi barpo etilgan uy-joylar nafaqat tashqi ko'rinishi, balki ichki qulayliklari bilan ham aholi talablariga to'liq javob bermoqda.

Alohida e'tiborga molik jihati shundaki, qurilish jarayonlariga, asosan, mahalliy qurovchi tashkilotlar jalb etildi. Bu esa ishsiz aholi bandligini ta'minlash, yangi ish o'rnlari yaratish imkonini berdi. Kelgusida ham bu yerda qurilishlar davom ettiriladi. Jumladan, joriy yilda “Yangi O'zbekiston” massivi tarkibida yana 10 ta ko'p qavatli bino qurilib, foydalanishga topshiriladi.

Amudaryo tumanida 2030-yilga qadar jami 49 ta ko'p qavatli turar joy qurilishi rejalashtirilgan bo'lib, bu minglab oilalar uchun yangi hayot, yangi imkoniyatlar va farovon kelajak demakdir.

“Yangi O'zbekiston” massivi shunchaki uy-joy emas, balki inson qadrini ulug'lash, ijtimoiy adolat va barqaror taraqqiyot sari tashlangan muhim qadamdir.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

SUV KELGAN ZAMINDA UMID QAYTA UYG'ONADI

Ba'zan katta o'zgarishlar shovqin-suron bilan emas, balki inson hayotidagi eng oddiy ehtiyojlar hal etilishi bilan boshlanadi. Uyingizga toza suv kelishi oddiy holatdek tuyulishi mumkin, ammo aynan shu “oddiylik” ortida inson qadri, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi va jamiyat taraqqiyotining mazmuni mujassam. Chunki suv bor joyda hayot bor, barqarorlik bor, ertangi kunga ishonch bor.



Talqin

Qoraqalpog'istonda bu haqiqat yillar davomida og'ir sinovdan o'tdi. Tabiiy sharoitning murakkabligi, ekologik muammolar, ayniqsa, suv resurslarining cheklangani bu hududda yashovchi aholi uchun ichimlik suvni nafaqat ehtiyoj, balki hayotiy masalaga aylantirdi. Shu ma'noda, bugun amalga oshirilayotgan ishlohtlar oddiy infratuzilma loyihalari bo'lib qolmay, inson shah'ni tiklash, uning munosib hayot kechirish huquqini ta'minlashga qaratilgan tarixiy jarayondir.

So'nggi yillarda xalqaro moliya institutlari, davlat va mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan amalga oshirilayotgan keng ko'lami loyihalari Qoraqalpog'istonda suv ta'minoti tizimini mullatqo yangi bosqichga olib chiqmoqda. Xususan, 2027-2028-yillarda 200 million

dollarlik sarmoya hisobidan ijtimoiy davom ettiriladi. Jumladan, joriy yilda “Yangi O'zbekiston” massivi tarkibida yana 10 ta ko'p qavatli bino qurilib, foydalanishga topshiriladi. Amudaryo tumanida 2030-yilga qadar jami 49 ta ko'p qavatli turar joy qurilishi rejalashtirilgan bo'lib, bu minglab oilalar uchun yangi hayot, yangi imkoniyatlar va farovon kelajak demakdir.

So'nggi yillarda xalqaro moliya institutlari, davlat va mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan amalga oshirilayotgan keng ko'lami loyihalari Qoraqalpog'istonda suv ta'minoti tizimini mullatqo yangi bosqichga olib chiqmoqda. Xususan, 2027-2028-yillarda 200 million

suv tozalash inshootining rekonstruksiya qilinishi natijasida uning quvvati sutkasiga 60 ming kub metrdan 95 ming kub metrga yetkazildi. Eng ahamiyatli, shahar aholisini toza ichimlik suv bilan ta'minlash darajasi 81 foizdan qariyb 100 foizga yetkazildi. Bu har bir xonadonga kirib kelgan qulaylik, har bir oilaning hayotidagi sezilarli o'zgarishdir.

Shu kabi ijobiy o'zgarishlar Nukus tumanida ham kuzatilmoqda. Osiyo taraqqiyot banki mablag'i hisobidan 263 kilometr suv tarmog'i tuzilishi orqali 31 mingdan ziyod odamning toza ichimlik suvga ehtiyoji ta'minlandi. Natijada tumaning suv bilan ta'minlanishi ko'rsatkichi 68,4 foizdan deyarli 90 foizga yetdi.

Ayni paytda Amudaryo tumanida qiymati 29 million dollarlik yirik loyiha amalga oshirilmoqda. Uning doirasida 354 kilometr suv tarmoqlari tuzilish va 3 ta suv taqsimlash inshootini rekonstruksiya qilish ishlari bajarilmoqda. Bugunaga kelib, 295 kilometrli tarmoq tortib bo'lingan.

Shu bilan birga, Amudaryo, Beruniy, Qorao'zak, Qo'ng'iro't va Mo'ynoq tumanlarida Osiyo taraqqiyot bankining 145 million dollarlik mablag'i hisobidan bajarilayotgan ishlar butun hudud bo'yab suv ta'minotini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Rejalashtirilgan ishlar esa jarayon yanada kengayib borayotganini ko'rsatadi. Turli tuman va mahallalarda yuzlab kilometr ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarini tuzilish, yangi inshootlar qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish orqali minglab odamlarning hayot sifati yanada yaxshilanadi. Bu kabi sa'y-harakatlar qishloq infratuzilmasini rivojlantirish, aholining yashash sharoitini yaxshilash va hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Qallibek XALMURATOV,
“Qoraqalpog'iston suv ta'minoti”
aktsiyadorlik jamiyati direktori

Ayni paytda tibbiyot sohasi oldiga qo'yilayotgan vazifalar tobora murakkablashib, talablar yuksalib borayotgan bir sharoitda Qoraqalpog'istonda shakllanayotgan yangi tajriba va yondashuvlar kelgusi taraqqiyot uchun mustahkam zamin hozirlamoqda.

SOG'LIQNI SAQLASH

TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR AHOLI SALOMATLIGI VA MAZMUNLI UMR KECHIRISHIGA DAXLDOR

Mamlakatimizdagi keng ko'lami islohotlar, jumladan, aholi salomatligini mustahkamlash, tibbiyot muassasalarini xavfsiz va sifatli dori-darmonlar, tibbiy buyumlar bilan ta'minlash, sohaga raqamlashtirishni joriy etish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar ijobiy natija bermoqda.



Murad QURBANOV,
Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri

Tibbiyot xodimlari mehnatini rag'batlantirish, olis va chekka hududlarga shifokorlarni jalb etish maqsadida bunday hududlar ro'yxati 297 taga kengaytirilib, Qoraqalpog'istonda 38 ta mahalla ushbu ro'yxatga kiritilgan. Viloyatlar hamda Toshkent shahridan, shuningdek, xorijiy davlatlardan hududning Taxtako'pir, Chimboy, Qora'zak, Bo'zatov, Shumanay, Qo'ng'iro'ntumanlariga borib ishlovchi



Keyingi yillarda xalqimiz salomatligini muhofaza qilishda xususiy klinikalarning ulushi sezilarli darajada o'rtan. Hozir Qoraqalpog'istondagi 392 ta xususiy tibbiyot muassasida 346 ta ambulator va 45 ta stasionar sharoitda 57 turdagi mutaxassislik bo'yicha aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatilayotir.

Shu bilan birga, sog'liqni saqlash sohasida xorijiy klinikalar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilib, qator xalqaro memorandumlar imzolandi. Xususan, Xitoyning CSADI kompaniyasi yordamida Nukus shahrida bolalar tibbiyot klasteri qurilishi rejalashtirildi. Bundan tashqari, ayni hududda onalar va bolalar uchun BAA yordami bilan shifoxona qurilishi yakunlanmoqda.

Yaponiyaning "Digital knowledge" kompaniyasi tomonidan homilador ayollar uchun mo'ljallangan raqamlashtirilgan platformani birlamchi tibbiyot bo'g'ini xodimlari amaliyotiga joriy etish qo'shma loyihasi bilan birga AQSHning TIFO tashkiloti yordamida hududda "Orol fojiasining mintaqaviy aholi salomatligiga salbiy ta'sirini o'rganish" loyihasi doirasida suv namunalari olish va o'rganish ishlari bajarilmoqda.

Bugun Qoraqalpog'istonda tibbiyot sohasida kuzatilayotgan o'zgarishlar muayyan tarmoq doirasidagi yangilanishlar bilan cheklanib qolayotgani yo'q. Ularning mazmun-mohiyati inson qadri ulug'lash, aholi salomatligini saqlash va hayot sifatiga daxldor eng muhim masalalarni hal etishga qaratilgan.

Ayni paytda tibbiyot sohasi oldiga qo'yilayotgan vazifalar tobora murakkablashib, talablar yuksalib borayotgan bir sharoitda Qoraqalpog'istonda shakllanayotgan yangi tajriba va yondashuvlar kelgusi taraqqiyot uchun mustahkam zamin hozirlamoqda. Eng muhimi, bu jarayonlar markazida inson qadri va manfaatlarini turibdi. Fuqarolarning sifatli tibbiy xizmatdan bahramand bo'lishi, o'z vaqtida tashxis va davolanish imkoniyatlarini kengaytishi, malakali tibbiy yordamlarni aholiga yanada yaqinlashayotgani esa islohotlarning hayotiy ahamiyatini yaqqol namoyon etayotir.

Bolaligidan kitob va adabiyot muhitida ulg'aydim.
Vaqt o'tishi bilan so'zning kuchi, axborotning ta'siri, jamiyat hayotidagi voqea-hodisalarni anglash va ular haqida fikr bildirishga qiziqish kelajakdagi kasbimni belgilab berdi. Bugun ortga nazar tashlar ekanman, Qoraqalpog'iston yoshlari uchun yaratilayotgan alohida imkoniyat mening taqdirimda ham muhim o'rin tutganini chuqur his qilaman.

Jumladan, Prezidentimiz tashabbusi bilan har yili Qoraqalpog'istonlik yoshlar uchun qo'shimcha davlat grantlari va to'lov-kontrakt asosidagi o'rinlar ajratilayotgani minglab yoshlar qatori men uchun ham yangi imkoniyatlar eshigini ochdi.

Talablik yillarim faqat ta'lim va ijod bilan cheklanib qolgan yo'q. Turli mahalliy va xalqaro loyihalarda ishtirok etish orqali jamoatchilik faoliyatida ham o'rinni topishga harakat qilyapman. Xususan, Top-100 UniCamp dasturi, "Yashil kelajak" ekologik oromgohi hamda BMT Bosh Assambleyasining namunaviy modeli kabi loyihalarda volontyor sifatida qatnashdim. 2025-yilda O'zbekiston yoshlari tomonidan amalga oshirilgan 2000 ta kichik robotni qisqa muddatda yig'ish bo'yicha tarixiy tashabbusda ishtirok etib, Guinness rekordlar kitobiga kirish jarayoniga hissa qo'shganim hayotimdagi unutilmas voqealardan bo'ldi. Shu bilan birga, "Ibrat debat" respublikani tanlovida "Eng yaxshi munozarachi" nominatsiyasi sohibi bo'lganim fikrni asoslash, tahlil qilish va omma oldida erkin so'zlash ko'nikmalarimni yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Bundan tashqari, Fransiya va AQSHda o'tkazilgan xalqaro ilmiy konferensiyalarda ishtirok etdim. Ularda matbuot nazariyasi hamda Orol dengizi ekologik

IMKONIYAT – KATTA ISHONCH VA MAS'ULIYAT DEMAK



Yoshlik shijoati

maydoni zarur. Universitetimizda tashkil etilgan turli to'garaklar, klublar va ijodiy platformalar ana shunday ehtiyojga javob beradi. Men ham universitetimizdagi "Yosh jurnalistlar" klubi faoliyatida ishtirok etib kelyapman. Klub faoliyati davomida kameradan foydalanish, intervyu olish, reportaj tayyorlash, matn yozish va mediamahsulotlar ustida ishlash bo'yicha tajriba to'pladim.

muammosining ommaviy axborot vositalarida yoritilishiga bag'islangan ilmiy maqolalarim bilan qatnashdim. Ayniqsa, Orol dengizi muammosi men uchun alohida ahamiyatga ega mavzu. Chunki mazkur ekologik fojia Qoraqalpog'iston hayoti bilan bevosita bog'liq. Bu muammoni ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari bilan birga axborot makonida qanday yoritilayotgani ham diqqatga molik masala. Jurnalist sifatida ana shunday dolzarb mavzularni o'rganish, ular haqida ilmiy va amaliy xulosalar chiqarish orqali jamiyat uchun foydali shaxs bo'lishga intilaman.

Sohaga qiziqishim adabiyot va ijodga mehmim bilan bevosita aloqador. Bu qiziqishlar vaqt o'tishi bilan muayyan natijalarda ham o'z aksini topdi. Maktabdalik davrimdayoq "Guldan nozik ko'ngillarim" nomli ilk she'riy to'plamim nashr etildi. Keyinchalik "Hilol" nomli ijodiy kitobda ham she'r va maqolalarim chop qilindi. Ijod men uchun his-tuyg'ularni qog'ozga tushirish vositasi bo'libgina qolmay, hayotini chuqurroq anglash, inson qalbidagi kechinmalarni his qilish va voqelikka teran nazar solish imkonini berdi. Aynan shu jihatlarni meni jurnalistikaga yanada yaqinlashtirdi. Chunki jurnalistika inson taqdiri, jamiyat hayoti va zamon voqealarini anglashga intilish bilan bog'liq.

Hozir Slovakiyada o'qishni davom ettirish maqsadida "National Scholarship Programme" dasturi uchun hujjatlarimni tayyorlayapman. Mazkur dastur bir semestrlik o'quv almashinuv imkoniyatini taqdim etadi. Ushbu imkoniyat orqali yangi bilimlarga ega bo'lish barobarida Yevropa mehnati muhiti, akademik an'analari va jurnalistika sohasidagi zamonaviy yondashuvlarni ham yaqindan o'rganishni maqsad qilganman.

Tayyorlayotgan ilmiy tadqiqotim orqali Qoraqalpog'iston va Slovakiya hududiy gazetalarining bugungi holati, raqamli texnologiyalar ta'sirida kechayotgan o'zgarishlar, media inqirozi bilan bog'liq muammolar hamda zamonaviy jurnalistikaning yangi talablarini qiyosiy tahlil qilishni rejalashtirganman.

Munisa TOJIBOYEVA,
Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi talabasi

Ayniqsa, Qoraqalpog'istonda keyingi yillarda sohada yuz bergan sifat o'zgarishlarini alohida ta'kidlash joiz. 2017-2025-yillarda hududda "Bir qadam" tamoyili asosida 76 ta oliyiv poliklinikasi, 87 ta mahalla tibbiyot punkti tashkil etildi. Shuningdek, ixtisoslashtirilgan markazlarning hududiy filiallarida 150 turdagi yangi texnologiyalar joriy etildi. Yiliga 4500 bemorning Toshkent va chet elga bormay, hududning o'zidayoq yuqori texnologik yordam olish imkoniyati yaratildi. To'rtko'l, Qo'ng'iro't va Chimboy tumanlarida qo'shma shifokorlik markazlari tashkil etilib, bemorlarga joylarning o'zida shoshilinch va malakali tibbiy yordam ko'rsatish ta'minlandi.

Bundan tashqari, 6 yoshli bolalar orasida virusli gepatit "A" kasalligining oldini olish maqsadida bepul rejali emlash o'tkazildi. Tegishli farmon asosida faqat 2025-yilning o'zida Qoraqalpog'istonda yashovchi bolalar uchun zarur mablag' ajratilib, 47 ming 220 doza vaktsina sotib olindi va yosh ko'rsatkichi bo'yicha kasallanish darajasi yuqori bo'lgan bolalar orasida gepatit "A" kasalligiga qarshi bepul emlash ishlari bajarildi. Natijada aholining ushbu kasallikka chalinish ko'rsatkichi 2024-yildagiga nisbatan 1,6 barobar, maqsadli guruh bolalari o'rtasidagi kasallanish holatlari 3,7 barobar kamayishiga erishildi.

Joriy yilda kasallikka qarshi emlash uchun byudjetdan yana 8 milliard so'm ajratildi. Shuningdek, bugunga qadar faqat Toshkent shahrida o'tkazib kelingan ayrim murakkab jarrohlik amaliyotlari endi shu yerning o'zida bajarilmoqda. Jumladan, sun'iy on aylanish apparati orqali bemorlarning yuragida ochiq jarrohlik amaliyoti o'tkaziladi. Multispiral kompyuter tomografiyasi, ultratovush, laboratoriya uskunalarini esa kasalliklarga erta tashxis qo'yish imkonini bermoqda.

shifokorlarning oylik lavozim maoshiga dastlabki uch yil davomida 100 foiz, Mo'ynoq tumanida esa 200 foiz miqdorida qo'shimcha har oylik ustama davlat budjeti hisobidan to'lab borilmoqda.



Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi jami 221 muassasada "Elektron poliklinikasi" va "Elektron shifoxona" axborot tizimlari shakllantirilib, bemorlarni oliyiv shifokorlarga birlashtirish, onlayn qabulga yozilish, patronaj, profilak-

ta'minlangan tez tibbiy yordam bo'limi, ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasi, shuningdek, hududlarda qishloq oliyiv poliklinikalari, chekka qishloqlarda esa mahalla tibbiyot punktlari tashkil etilgan. Aholining salomatligi shifokorlarning doimiy nazoratida.



Bugun ijtimoiy himoya nima ekani, u bilan bog'liq harakatlar aslida qanday bo'lishi kerakligi real hayotda namoyon bo'lyapti. Aksariyat hollarda raqamlar faqat hujjatlarda aks etmay, eng chekka hududlardagi oddiy insonlar qalbiga ham umid olib kira boshladi. Alohida e'tiborga ehtiyojmandlar hayotidan rozi bo'lib, shukronalik hissini tuyayotgani ham haqiqat. Buning uchun Ijtimoiy himoya milliy agentligi, umuman, tizimdagi xodimlar astoydil ishlayapti, tinim bilmayapti. Xususan, Qoraqalpog'istonda amalga oshirilgan ishlar ham har qachongidan natijador, aholining turmush farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda.



Birgina 2025-yilda Qoraqalpog'istonda kam ta'minlangan qariyb 46 ming oila bolalar nafaqasi va moddiy yordam bilan qamrab olindi. 41 mingdan ziyod fuqaroga ijtimoiy nafaqa tayinlandi. 130 mingdan ortiq oila alohida o'rganilib, ehtiyojmand oilalar bilan individual ishlash tizimi yo'lga qo'yilgani esa kambag'allikni qisqartirish borasidagi manzilli ishlardan dalolat. 28 mingdan ziyod oilaning kambag'allikdan chiqqani aytishgagina oson. Aslida, bu ko'rsatkich ijtimoiy xizmatlar, bandlik, ta'lim va tibbiy yordam yo'nalishlaridagi kompleks chora-tadbirlar samarasi bo'ldi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va texnik vositalar bilan ta'minlash ham yangi bosqichga ko'tarildi. Vaucher tizimi joriy etilishi minglab fuqarolarga protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya texnik vositalarini olish imkonini berdi. Qariyb 14 mingta protez-ortopediya moslamasi va reabilitatsiya texnik vositasi bo'yicha vaucherlar shakllangani buning amaliy ifodasi. Shuningdek, reabilitatsiya markazlarida xizmatlar sifati oshirilib, murojaatchilarning aksariyati zarur davolash va tiklanish xizmatlari bilan qamrab olindi.

IJTIMOY ADOLAT TAMOYILLARI TURMUSH FAROVONLIGINI TA'MINLAYDI

Yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida yasaylik va homiylik tizimi takomillashtirilgani oila muhitida tarbiyalanayotgan bolalar uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan 86 bola uy-joy bilan ta'minlandi. "Yoshlarga hamrohlik" dasturi doirasida ularning ta'lim olishi, kasb egallashi va mustaqil hayotga tayyorgarligi uchun manzilli yordamlar ko'rsatildi. Bunday bolalarni oliyiv muhitga yaqin sharoitlarda tarbiyalash, ularning zamonaviy va qulay yashashi uchun Nukus shahrida kichik hajmli bolalar uyi tashkil etildi.

Bolalarning ehtiyojlarini etda aniqlash va ular uchun munosib ta'lim hamda reabilitatsiya yo'nalishlarini belgilashda psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hisobot davrida 3,4 mingdan ortiq bola komissiya ko'rigidan o'tkazilib, aksariyatiga tegishli ta'lim yoki reabilitatsiya muassasalariga yo'llanmalar berildi.

Ayni paytda ijtimoiy xizmatlarning yangi turlari joriy etilmoqda. Ijtimoiy xodimlarning munosib rag'batlantirilayotgani, ular o'rtasida sog'lol roqabat muhiti yaratilgani bunday xizmatlarning amaliyotiga tez va to'laonliq ta'lim o'zlashini ta'minlayapti. Xususan, "Faol hayotga qadam" dasturi doirasida o'zgarlar parvarishiga muhtoj shaxslarga xizmat ko'rsatish ko'lamini



Ezgu amallar

kengaydi. Davlat va xususiy sektor hamkorligi asosida yuzlab fuqarolar ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olindi, yangi ish o'rinlari yaratildi va ko'plab oilalarning bandligi ta'minlandi. Qoraqalpog'istondagi 452 mahallaning deyarli barchasida ijtimoiy xodimlar faoliyat yuritib, aholi muammolarini o'z vaqtida aniqlash va hal etishga ko'maklashmoqda. Yil boshidan buyon og'ir ijtimoiy ahvonga tushgan yoki shunday xavf ostida bo'lgan 7,6 mingdan ortiq oila bo'yicha keymlar ochilib, 5,2 ming fuqaroga turli ijtimoiy xizmat va yordamlar ko'rsatildi.

Ayolni ulug'lash, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga har qachongidan kuchli e'tibor qaratilyapti. Bu tom ma'noda inson qadri ulug'lash, har bir inson hayotda o'z o'rni bor ekanini his etib yashashi uchun qilinayotgan ezgu harakat hamdir. Hududlarda tashkil etilgan birlamchi ko'mak xonalar va reabilitatsiya markazlari orqali yuzlab jabrdiyda ayollar hamda ularning farzandlariga psixologik, huquqiy va ijtimoiy yordam ko'rsatildi. Zo'ravonlikdan ozor ko'rgan qaysi bir ayol yoki bola bilan gaplashmang,

o'zining davlat himoyasida ekanidan minnatdorligini chin yurakdan aytdi. Chunki, eng avvalo, sog'lig'idan tortib, kasb-hunarga o'qitish orqali mustaqil hayotga qaytishigacha ularga davlat beminnat ko'mak beryapti.

Sog'lom turmush tarzini qor to'rtirish va ijtimoiy faollikni oshirishda adaptiv sportning ahamiyati ortib boryapti. Parasporthilarga munosabat butunlay o'zgargani, Paralimpiya harakatining Olimpiya harakati bilan teng ko'rilayotgani bu borada muhim ahamiyat kasb etyapti. Shuning uchun sportchi yoshlarimizda umid uyg'onib, ishonch ortmoqda. Bugungi kunda 3,5 mingdan ziyod parasporthchi sport bilan muntazam shug'ullanaypti. Qoraqalpog'istonlik sportchilar respublika va xalqaro musobaqalarda 300 dan ortiq medalni qo'lga kiritib, yurtimiz sharafini munosib himoya qilib kelayotganida yuqoridagi omillar birlamchi o'rin tutadi, albatta. Bunday e'tibor ortidan sportchi yoshlarimizning yutuqlari salmog'i yanada ortishi aniq.

Bir so'z bilan aytganda, Qoraqalpog'istonda ijtimoiy himoya sohasidagi ishlar inson manfaatlarini ta'minlash, ehtiyojmand aholini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy adolat tamoyillarini hayotga ta'tbiq etishga xizmat qilmoqda. Eng muhimi, bu raqamlar ortida minglab insonlar taqdiri, orzu-umidlari va yangi imkoniyatlarini muvaffaqdardir. Shu ma'noda, odamlarning hayotidan roziligiga sababchi bo'lishda jadal davom etishimiz zarur. Zero, bundan ezguroq amal, xayriyroq ish bo'lmas kerak.

Saylao'bay DANIYAROV,
Ijtimoiy himoya milliy agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi boshlig'i

